

**DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH,
RISKLARNI BAHOLASH, HAMDA TADBIR DAVOMIDA YUZGA
KELADIGAN MUAMMOLAR**

ORGANIZATION OF INTERNAL AUDIT EVENTS IN THE PUBLIC
SECTOR, RISK ASSESSMENT, AND PROBLEMS ARISING
DURING THE EVENT

Sattorova Zilola

*Toshkent moliya instituti, magistrant,
z.sattorova_i@mail.ru
ORCID: 0009-0002-1010-0307*

Ostonokulov Azamat

*Toshkent moliya instituti, DSc, dotsent,
ostonokulov@rambler.ru,
ORCID:0000-0003-2792-3174*

Sattorova Zilola

*Tashkent Financial Institute,
graduate student, z.sattorova_i@mail.ru
ORCID: 0009-0002-1010-0307*

*Ostonokulov Azamat Tashkent Financial Institute,
DSc, associate professor, ostonokulov@rambler.ru,
ORCID:0000-0003-2792-3174*

Annotatsiya. Maqolada davlat sektorida ichki audit tadbirlarini tashkil etish jarayoni, ichki audit xizmati tomonidan ichki audit obykti xavf darajalarini aniqlash, ichki audit tadbiri dasturini tuzish tartibi, davlat sektorida ichki audit tadbirlari risklarni baholash jarayoni, ichki audit tadbirlari davomida yuzga keladigan muammo va kamchiliklar bayon qilingan.

Abstract. The article describes the process of organizing internal audit activities in the public sector, determining the risk levels of the internal audit object by the internal audit service, the procedure for creating the program of the internal audit event, the risk assessment process of internal audit activities in the public sector, the problems and shortcomings encountered during the internal audit activities.

Kalit so'zlar: ichki audit tadbiri, ichki audit obykti, moliyaviy hisobot, ichki audit xizmati, risklarni baholash, xavf omillari, xavf darajasi, xavf tahlili

Key words: *internal audit activity, internal audit object, financial reporting, internal audit service, risk assessment, risk factors, risk level, risk analysis*

Kirish

Bugungi kungacham respublikamizda mavjud bo'lgan davlat moliyaviy nazorat tizimi asosan tashqi moliyaviy nazoratdan iborat bo'lib, vakolatli organlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi, Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Bosh

prokuratura kabilarning alohida bo'linmalari o'z vazifalari doirasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirib kelganlar. Endilikda Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish va samarali ishlashini ta'minlash maqsadida byudjet tashkilotlarida ichki auditni tizimini yo'lga qo'yish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinyotganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 26.12.2013-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.08.2021 yildagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2021 yil 280-son "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 1 avgustdagi 416-son "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3406 "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston respublikasi Moliya vazirining buyrug'i tasdiqlandi. Ushbu me'yoriy hujjatlarga asosan davlat tashkilotlarida ichki audit xizmati bo'limlari tashkil etildi. Ichki audit faoliyati byudjet intizomini mustahkamlash, qonun hujjatlari buzilishining oldini olish, vazirlik va idoralarda xarajatlar samaradorligini baholash, hujjatlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Ichki audit tadbiri ichki auditning yillik rejasiga muvofiq amalga oshiriladi va uni amalga oshiruvchi guruh bu haqda ichki audit subyektiga yozma xabar beradi.

Bu, xabarnoma ichki audit tadbiri boshlanishidan kamida besh ish kuni avval ichki audit obyekti rahbariga yuboriladi. Rejadan tashqari o'tkaziladigan ichki audit tadbiri to'g'risida ichki audit obyekti ichki audit tadbiri o'tkazilishidan kamida bir ish kuni oldin xabardor qilinadi. Mazkur xabarnomada ichki audit tadbiri davomida bajariladigan ishlar to'g'risida qisqacha ma'lumot, ichki audit tadbirini o'tkazishda taqdim etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish muddatlari, ichki audit tadbirini o'tkazish guruhi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ichki audit tadbirini o'tkazish to'g'risidagi xabarnoma ichki audit xizmati rahbari tomonidan imzolanadi. Ichki audit tadbirini o'tkazish to'g'risidagi xabarnomada so'ralgan ma'lumot va hujjatlar ichki audit obyekti tomonidan uch ish kuni ichida ichki audit tadbirini o'tkazish guruhiga taqdim etiladi.

Ichki audit tadbirini o'tkazish guruhi xabarnoma yuborgandan so'ng ichki audit obyekti taklifiga muvofiq ichki audit obyektining moliyaviy faoliyati bilan tanishish, ichki audit tadbiri dasturini tuzish yuzasidan yuzma-yuz yoki masofaviy uchrashuv (telefon, internet audio va video aloqa vositalaridan foydalangan holda) o'tkazishi mumkin. Ichki audit tadbiri dasturi quyidagi ko'rinishda bo'ladi (1-rasm).¹

Ichki audit tadbiri

DASTURI

1-rasm

1. Ichki audit tadbiri	
------------------------	--

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3406 "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston respublikasi Moliya vazirining buyrug'i

2.	Ichki audit obyekti nomi	
3.	Ichki audit obyekti manzili	
4.	Ichki audit tadbirini o'tkazish sabablari (agar ichki audit yillik rejasiga kiritilmagan bo'lsa)	
5.	Ichki audit tadbiri yo'nalishlari: 1-yo'nalish 2-yo'nalish 3-yo'nalish	
6.	Rejalashtirilgan audit usullari <i>(audit usulini "✓" ushbu belgini qo'yish orqali belgilang)</i>	<input type="checkbox"/> tanlov usuli <input type="checkbox"/> umumiy o'rganish usuli
7.	Ichki audit tadbirini o'tkazish guruhi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar <i>(ismi, familiyasi, lavozimi)</i>	
8.	Ichki audit tadbirini o'tkazish muddati	
9.	Ichki audit tadbiri bilan qamrab olingan davr	

Ichki audit xizmati rahbari (F.I.O.)

(imzo)

(kun, oy, yil)

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Davlat sektorida ichki audit tadbirlari risklarni baholash jarayonini ham o'z ichiga oladi. Risklarni baholash deganda biz - xavflarni qanday boshqarish kerakligini aniqlash uchun tashkilot maqsadlariga erishish uchun tegishli xavflarni aniqlash va tahlil qilishni tushunamiz. Risklarni baholash jarayonida ichki audit tashkilotga turli xavflarning ehtimoli va potentsial ta'sirini aniqlaydi va baholaydi. Keyinchalik, qoldiq risk boshqariladigan darajada bo'lishini ta'minlash uchun ular xavfni kamaytirishda ichki nazorat qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligini aniqlaydi va baholaydi. Qoldiq xavf deganda uning oldini olish uchun nazorat yoki protseduralar amalga oshirilgandan so'ng biror narsa sodir bo'lishi xavfi. Ichki audit obyektlari xavf tahlili asosida baholanadi hamda baholash natijalaridan kelib chiqib ularning xavf darajasi aniqlanadi. Ichki audit obyektlarini xavf tahlili asosida baholash xavf omillarini belgilash hamda ularga tegishli mezonlar va xavf omili vazni asosida ball berish orqali ichki audit obyektlarini xavf darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi. Xavf omillarini belgilashda ichki audit obyektining moliyaviy faoliyatida xavflarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinadi. Ichki audit xizmati tomonidan ichki audit obyekti xavf darajalarini aniqlashda quyidagi xavf omillaridan foydalaniladi:

- ichki audit obyektining yillik moliyalashtirish hajmi;

- ichki audit obyektiga ajratilgan mablag'larning o'zlashtirilishi;
- ichki audit obyektida rahbariyat va moliya-xo'jalik tuzilmalari xodimlarining qo'nimsizligi;
- ichki audit obyektini moliyaviy faoliyatiga oid jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari;
- ichki audit obyektida faoliyat yuritayotgan xodimlar soni;
- ichki audit obyektining moliyalashtirish manbalari soni;
- ichki audit obyektida o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni;
- ichki audit obyektida o'tgan davr mobaynida tuzilgan shartnomalar soni;
- ichki audit obyektida so'nggi besh yil ichida moliyaviy nazorat va ichki audit tadbiri amalga oshirilmagan davr;
- ichki audit obyektining debitor qarzdorlik hajmining o'sishi;
- ichki audit obyektining kreditor qarzdorlik hajmining o'sishi.

Ko'rib turganingizdek, ushbu xavf omillari har qanday ichki audit ob'ekti bilan bog'liq riskni baholash uchun zarurdir. Masalan, yillik moliyalashtirish hajmi, moliyalashtirish manbalari soni, bitimlar soni va shartnomalar soni kuzatilishi kerak bo'lgan muhim ko'rsatkichlardir. Bundan tashqari, moliyaviy-iqtisodiy tuzilmalar rahbariyati va xodimlarining qobiliyatsizligi ichki audit tartib-qoidalarining noto'g'ri ekanligini ko'rsatishi mumkin va tegishli tarzda hal qilinishi kerak. Nihoyat, debitorlik qarzlari yoki kreditorlar qarzlarning ortishi ichki audit tartib-qoidalariga e'tibor berilmayotganligini ko'rsatishi mumkin va ularni hal qilish zarur.

Ichki audit xizmati tomonidan mavjud ichki audit obyektlarida kamida bir marotaba ichki audit tadbiri o'tkazilgan bo'lsa quyidagi xavf omillari ham qo'llaniladi:

- avvalgi o'tkazilgan ichki audit tadbiri natijalari;
- ichki audit xizmati taklif va tavsiyalarining bajarilishi.

Ichki audit obyektlarini xavf tahlili asosida baholashda ichki audit obyektini faoliyatidan kelib chiqib hamda vazirlik va idorada foydalaniladigan dasturiy majmualardan hamda belgilangan tartibga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarining bazalaridan olingan ma'lumotlardan foydalanib qo'shimcha xavf omillari qo'llanilishi mumkin. Ichki audit obyektlarini xavf tahlili asosida baholashda kamida 4 ta xavf omilidan foydalaniladi hamda ichki audit xizmati tomonidan butun sonlardagi 1 — 3 ball berish orqali baholanadi. Bunda, 3 ball tegishli xavf omilining eng yuqori darajasini va 1 ball tegishli xavf omilining eng past darajasini bildiradi. Ichki audit xizmati tomonidan xavf omillariga ball berishda har bir xavf omiliga mezonlar ishlab chiqiladi hamda ichki audit xizmati rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ichki audit xizmati tomonidan tanlab olingan xavf omillarining muhimlik darajasidan kelib chiqib, ularga xavf omili vazni belgilanadi.

Bunda, belgilangan xavf omili vaznining umumiy miqdori 1 ga (100 foizga) teng bo'lishi kerak. Xavf omiliga qo'yilgan ballni xavf omili vazniga ko'paytirish orqali xavf omili qiymati hisoblab chiqariladi hamda tanlab olingan xavf omillari qiymatlarining yig'indisini hisoblash asosida ichki audit obyektining xavf darajasi aniqlanadi. Xavf darajasining qiymati 2 va undan yuqori bo'lganda, ichki audit obyektiga "yuqori" xavf darajasi, 1,5 va 2 oralig'ida bo'lsa (1,5 ham kiradi), "o'rta" xavf darajasi, 1 va 1,5 oralig'ida bo'lsa, "past" xavf darajasi belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, xavf omillari ularning ichki audit jarayoniga ta'sirining ahamiyati va ahamiyatiga qarab baholanishi kerak. Bu har bir omilni hisobga olish va to'g'ri tahlil qilish, risklarni yanada aniqroq baholash va ichki audit jarayonlarining to'g'ri ishlashini ta'minlaydi. Va nihoyat, shuni yodda tutish kerakki, ichki audit ob'ektining xavf darajasi belgilangan xavf omillarining yig'indisi bilan belgilanadi, shuning uchun ularning barchasi bir xilda kuzatilishi va baholanishi kerak.

Ichki audit obyektlari xavf darajasini xavf omillari tahlili asosida baholash 1-jadvalga muvofiq amalga oshiriladi.²

Ichki audit obyektlarining xavf darajasini xavf omillari asosida baholash

JADVALI

1-jadval

T/r	Ichki audit obyektlari nomi	Xavf omili 1			Xavf omili 2			Xavf omili 3			Xavf omili 4			Xavf omilining umumiy bahosi	Xavf darajasi
		Baho	Xavf omili vazni	Qiymat	Baho	Xavf omili vazni	Qiymat	Baho	Xavf omili vazni	Qiymat	Baho	Xavf omili vazni	Qiymat		
1	2	3	4	$5=3*4$	6	7	$8=6*7$	9	10	$11=9*10$	12	13	$14=12*13$	$15=5+8+11+14+...+n^*$	16
1.															
2.															
...															

n — mazkur jadvaldagi so'ngi xavf omili uchun hisoblangan qiymat.*

Ichki audit xizmati rahbari (F.I.O.)

(imzo)

(kut. og. yil)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muntazam ravishda olib boriladigan ichki audit tadbirlari barcha hajmdagi tashkilotlar uchun juda muhim, chunki ular potentsial nosozlik joylarini aniqlashi va kutilmagan yo'qotishlar yoki xatolar xavfini kamaytirishga yordam beradi. Yuqorida sanab o'tilgan xavf omillarini hisobga olgan holda va ichki audit tizimini muntazam ravishda ko'rib chiqish orqali tashkilotlar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashi mumkin.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Ichki audit tadbirlari davomida auditorlat bir qancha muammolarga duch keladilar va kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Ichki auditda muammolarning kelib chiqishi yoki zaif tomonlarining yuzaga kelishi nafaqat noto'g'ri ma'lumotlarning sodir bo'lganligiga, balki noto'g'ri ma'lumotlarning yuzaga kelishi ehtimoliga va bu noto'g'ri ko'rsatishning mumkin bo'lgan hajmiga ham bog'liq.

² O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3406 "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston respublikasi Moliya vazirining buyrug'i

Shu sababli, auditor audit davomida noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlamagan bo'lsa ham, jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lishi mumkin.


Auditor ichki auditdagi kamchilik yoki zaif tomonlarning kombinatsiyasi muhim kamchilik ekanligini aniqlashda e'tiborga olishi mumkin bo'lgan masalalarga quyidagilar kiradi: 2-rasm³

2-rasm



Bularning barchasi ichki auditni o'tkazishda muhim ahamiyatga ega bo'lib noto'g'ri ma'lumotlar yoki kutilmagan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan zaif nuqtalar yoki muvaffaqiyatsizlik joylariga hissa qo'shishi mumkin. Auditorlar ichki nazorat tizimining samaradorligini baholashda ushbu risklarni hisobga olishlari va risklar foydadan ustunligini aniqlashlari kerak. Noto'g'ri ma'lumotlar yoki firibgarlik xavfini, shuningdek, aktivlarning yo'qolishi yoki o'zlashtirilishi xavfini minimallashtirish uchun nazorat qilish tizimi mavjud bo'lishi juda muhimdir. Nazorat tizimini muntazam ravishda kuzatib borish va ko'rib chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va to'liqligini ta'minlashga yordam beradi.

³ Muallif tomonidan tuzilgan.

Ichki auditdagi jiddiy kamchiliklarning belgilari, masalan:⁴

Ko'rinib turibdiki, ichki auditorlar juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishadi va xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Auditor har qanday mumkin bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar aniqlanganligi va bartaraf etilganligiga ishonch hosil qilish uchun ichki auditni o'tkazishda ushbu mumkin bo'lgan barcha muammolarni hisobga olishi muhimdir. Ichki auditdagi jiddiy kamchilikning asosiy belgilaridan ba'zilari muhim operatsiyalar ustidan samarasiz nazoratning dalillari, boshqaruvning adolatsiz xatti-harakatlarini aniqlash, tegishli tuzatish choralarni ko'rishning iloji yo'qligi va tavakkalchilikni samarali baholash jarayonining yo'qligi. Bundan tashqari, noto'g'ri ma'lumotlarning har qanday dalillari, ilgari e'lon qilingan moliyaviy hisobotlarga tuzatishlar natijalari va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash ustidan nazorat yo'qligi hisobga olinishi kerak. Ushbu omillarning barchasini hisobga olish noto'g'ri ma'lumotlarning yuzaga kelishi ehtimolini kamaytirishga yordam beradi va moliyaviy hisobotning to'g'riligini ta'minlaydi.

Noto'g'ri ma'lumotlarning oldini olish yoki aniqlash va to'g'rilash uchun boshqarish vositalari alohida yoki birgalikda ishlatilishi mumkin. Masalan, hisob balansidagi noto'g'ri ma'lumotlarning oldini olish yoki aniqlash va to'g'rilash uchun debitorlik nazorati avtomatlashtirilgan boshqaruv va ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlashni boshqarish vositalaridan iborat bo'lishi mumkin. Ichki auditning zaifligi o'z-o'zidan sezilarli zaiflikni tashkil etuvchi darajada ahamiyatli bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga, bir xil hisob balansiga yoki ichki nazoratning bir xil oshkor etilishi,

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

tasdiqlanishi yoki tarkibiy qismiga ta'sir ko'rsatadigan kamchiliklarning kombinatsiyasi noto'g'ri ma'lumotlar xavfini sezilarli kamchiliklarga olib keladigan darajada oshirishi mumkin.

Xulosa. Izlanishlar natijasida auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqotlarda tekshiruvni tashkil etish va o'tkazishga umumiy jihatdan yondashilganligi, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallarini bajarishda ilg'or xorij tajribasi va auditning xalqaro standartlariga muvofiq bajarishda hali yetarlicha muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish va auditorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarni ko'paytirish zarur. Bugungi kunda auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish bo'yicha ko'plab me'yoriy - huquqiy hujjatlar yoki adabiyotlar ishlab chiqilgan bo'lsada, ularda asosan tekshiruvni tashkil etish va o'tkazishga umumiy jihatdan yondashilib, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish bosqichlari yoki tekshiruvda bajariladigan auditorlik amallari aniq va to'liq yoritib berilmaganligi ilmiy mushohada etildi. Bugungi kunda auditorlarning auditning xalqaro standartlari me'yorlarini to'liq o'zlashtirmaganliklari va respublikada auditning xalqaro standartlari me'yorlari yangi tartib sifatida o'rnatilganligi tekshiruvlarni turlicha yondashuvlar asosida o'tkazilishi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga ishonchli kafolat berilishini so'roq ostiga qo'yilishiga ta'sir etmoqda. Fikrimizcha, auditorlik tekshiruvlarini qisqa muddatda sifatli o'tkazilishini ta'minlash hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchligini ta'minlashda auditning xalqaro standartlaridan keng foydalanish talab etiladi. Buning uchun esa rivojlangan davlatlar auditorlik amaliyotida keng qo'llanilayotgan AuditNET, ITAUDIT:Auditor, AUDITXP "Kompleks Audit", "Ekspress audit:PROF", Auditsoft va Audit Sampling va First-Audit kabi ilg'or auditorlik dasturlarini amaliyotga joriy etilishini ta'minlash (auditorlik tashkilotlarini tekshiruvlarda zamonaviy auditorlik dasturiy ta'minotni qo'llashni qonun yo'li bilan belgilab qo'yish) va auditorlarni dasturlardan foydalanish (malaka oshirish va o'quv kurslarini tashkil etish, auditorlarni dasturiy ta'minotlardan foydalanish bo'yicha majburiy sertifikatlash tizimini joriy etish)ni o'qitish tizimini yo'lga qo'yish lozim deb hisoblaymiz.

Auditorlik tekshiruvlarni tashkil etish va o'tkazishda auditorlik faoliyatining ilg'or xorij tajribasi hamda auditning xalqaro standartlari talablarini keng joriy etilishini ta'minlash kabi vazifalar respublikada auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim omil bo'ladi deb hisoblaymiz. Bugungi kunda auditorlik nazorati moliyaviy nazorat tizimining ajralmas qismiga aylandi. Moliya tizimini izchil isloh qilish va bozor infratuzilmasini takomillashtirish natijasida Respublikada auditorlik faoliyatining mustahkam me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. O'z navbatida uni rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida ta'sirchan iqtisodiy omillar hamda soliq imtiyozlari va preferentsiyalari qo'llanilmoqda hamda auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziyalar berish tizimi jiddiy ravishda soddalashtirildi va erkinlashtirildi. Biroq, auditorlik amaliyotida tashkilot aktivlari auditini, xususan asosiy vositalar auditini o'tkazishning aniq tartib-qoidalari va unda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar mazmun-mohiyatini ochib berish va uni tahlil qilish bugungi kundagi

o'rganilishi dolzarb bo'lgan masalalardan sanaladi. Shuningdek, hozirgi paytda auditorlik amaliyotida auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, o'tkazish va tekshiruv natijalarini umumlashtirish jarayonida o'z yechimini kutayotgan qator muammolarni bartaraf etish, ularning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi (26.12.2013-y.).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yili 1 avgustdagi 416-sonli "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3406 "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston respublikasi Moliya vazirining buyrug'i.
7. Кеворкова, Ж.А. Внутренний аудит: учебное пособие. / Ж.А. Кеворкова, Т.П. Карпова, А.А. Савин, Г.А. Ахматова/ Редактор: Кеворкова Ж.А.. Москва: Юнити-Дана, 2015.
8. Мамушкина Н.В. Внутренний аудит как эффективный метод управления организацией // Вестник НГИЭИ. 2013.
9. Шнайдер В.В. Внутренний контроль, стратегический анализ и прогнозирование вероятности банкротства как механизмы обеспечения экономической безопасности организации // Карельский научный журнал. 2016
10. RISK ASSESSMENT IN AUDIT PLANNING journal April 2014
11. Johnson, W. E. (2000). A critical analysis of the public sector internal audit function: Evidence from Australia. Account. Public Sector. J. 22(2), 200-223.
12. The Institute of Internal Auditors (2011). Supplemental guidance public sector definition Retrieved